

## Milliy g'oya - maqsad qoyasi

Milliy g'oya - muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddat hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi.

GIM fakulteti "Gumanitar fanlar" kafedrasida professor o'qituvchilar E. Qalqonov, M. Hakimova, M. Turdiboyeva va B. Muqimov tomonidan 26 mart kuni Milliy g'oya fani bo'icha 1 -bosqich olimpiadasi o'tkazildi. Unda institutning 4-chi bosqich bir guruh talabarlari ishtirok etib g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Olimpiadaning birinchi bosqichini kuzatish asnosida shu narsaga amin bo'ldikki, talabalar o'zlarining ilmiy salohiyatlarini to'la namoyish eta olishdi. Ularning savollarga aniq va lo'nda javob berishlari ular porloq istiqbolining darakchisidir.



**GIM fakulteti "Gumanitar fanlar" kafedrasida assistenti B. Muqimov axboroti**

**Institut matbuot kotibi R. Jumaniyozov**